NEFT-GAZ SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN INVESTISIYA LOYIHALARIDA MAHALLIY KONTENT ULUSHINI OSHIRISH MASALALARI



Umurzakov Jamoliddin Sherbekovich

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

ORCID: 0000-0002-7662-4210

jamoliddin.umurzokov@gmail.com

Annotatsiya: Neft-gaz sanoati O'zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega sohalardan biri bo'lib, unda amalga oshirilayotgan yirik investisiya loyihalari orqali mahalliy sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Tarmoq "mahalliy kontent" (local content) ulushini bosqichma-bosqich oshirish mahalliy ishlab chiqaruvchilar, milliy kadrlar va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarning investitsiya loyihalaridagi ishtiroki ulushini ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihalari, "mahalliy kontent", ishlab chiqaruvchilar, mahsulotlar, xizmatlar, neft-gaz sanoati, burg'ilash, qazib chiqarish, qayta ishlash, iqtisodiy milliychilik, texnologik suverenitet.

Abstract: The oil and gas industry is one of the strategically important sectors of the economy of Uzbekistan, and thanks to the implementation of large investment projects, great opportunities for the development of local industry and services are opening up. The gradual increase in the share of local content in the industry is achieved through the expansion of the participation of local producers, national personnel and service companies in investment projects.

Key words: investment projects, "local content", producers, products, services, oil and gas industry, drilling, extraction, processing, economic nationalism, technological sovereignty.

Аннотация: Нефтегазовая отрасль является одной из стратегически важных отраслей экономики Узбекистана, и благодаря реализации крупных инвестиционных проектов в ней открываются большие возможности для развития местной промышленности и сферы услуг.

Постепенное увеличение доли местного содержания в отрасли осуществляется за счёт расширения участия местных производителей, национальных кадров и сервисных компаний в инвестиционных проектах.

Ключевые слова: инвестиционные проекты, «местный контент», производители, продукция, услуги, нефтегазовая отрасль, бурение, добыча, переработка, экономический национализм, технологический суверенитет.

KIRISH

Neft-gaz sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining strategik muhim tarmog'i hisoblanadi. So'nggi yillarda tarmoqni modernizatsiya qilish va rivojlantirish maqsadida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini oshirish maqsadida investitsiya loyihalarida mahalliy kontent ulushini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu masalani o'rganish va yechimini topish mamlakatimizning neft-gaz sohasidagi raqobatbardoshligini oshirishga, import o'rnini bosishga va eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mahalliy kontentni oshirish investitsiya loyihalarini amalga oshirishda xarajatlarni optimallashtirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va loyihalarning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.



Ushbu tadqiqot (yoki maqola) doirasida neft-gaz sanoatidagi investitsiya loyihalarida mahalliy kontent ulushini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari, shuningdek, xalqaro tajriba tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari neft-gaz sanoatini rivojlantirishga oid strategiyalarni ishlab chiqishda, investitsiya loyihalarini rejalashtirishda va amalga oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Neft-gaz sanoati strategik tarmoq sifatida milliy iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. Xalqaro amaliyotda mahalliy kontent siyosatini ilgari surish orqali mamlakat ichidagi sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni investitsiya jarayonlariga kengroq jalb etish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etiladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur masala bo'yicha qator yondashuvlar shakllangan.

Tordo S., Warner M., Manzano O. E. va Anouti Y. (2013) hamda Kalyuzhnova Y. (2017) iqtisodiy tadqiqotlarida mahalliy kontent, avvalo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida mahalliy ishchi kuchi, mahalliy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi [1, 2]. Bu tushuncha nafaqat to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarishni, balki ta'lim, infratuzilma, innovatsiya va texnologiya transferini ham qamrab oladi.

Ovadia J. S. (2016) tadqiqotlarida mahalliy kontent talablari qat'iy belgilanganda milliy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratilishi keskin oshishi ta'kidlangan [3]. Nigeriya va Angola davlatlari tajribasida mahalliy kontent ulushini oshirishda qonunchilik va normativ bazaning ahamiyatini ko'rishimiz mumkin.

Vasconcelos F. C. va Vasconcelos F. A. (2019) asarlarida shunday qo'shma loyihalar mahalliy sanoatni texnologik jihatdan rivojlantirishga xizmat qilishi tadqiq qilingan. Xususan, Braziliya tajribasida mahalliy korxonalarni yirik xalqaro kompaniyalar bilan integratsiya qilish mexanizmi muhim rol o'ynagan [4].

Esengeldin B., Mussirov K. va Urazova G. (2020) mahalliy kontent siyosatini amalga oshirishda davlat ishtirokining turli shakllarini (imtiyozlar, davlat xaridlari, tenderlar) samarali vosita sifatida baholaydi [5].

Adabiyotlarda qayd etilganidek, investitsiya loyihalarida mahalliy kontent darajasini oshirish milliy sanoat tarmoqlarida ish o'rinlarini ko'paytirish, mahalliy ta'minotchilarning raqobatbardoshligini oshirish, importga bog'liqlikni kamaytirish, innovatsiya va texnologiyalarni lokallashtirish, davlat byudjeti tushumlarini ko'paytirish kabi iqtisodiy ta'sirlarni beradi.

Biroq, Esteves A.M. va Barclay M. A. (2011) tadqiqotlarida shuningdek, bir qator muammolar ham qayd etilgan, masalan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning sifat talablariga javob bermasligi, moliyaviy resurslar taqchilligi, kadrlar malakasining pastligi va texnologik jihatdan yetishmovchiliklar [6].

Umuman olganda, iqtisodiy nazariya nuqtai-nazaridan mahalliy kontent siyosati iqtisodiy milliychilik (economic nationalism) konsepsiyasi bilan uyg'un, chunki u milliy manfaatlarni himoya qilishga, iqtisodiy suverenitetni ta'minlashga qaratilgan va shuning uchun ham institusional yondashuv doirasida davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlash jarayonida neft-gaz sanoatida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning o'ziga xosliklari, mahalliy kontent, mahalliyashtirish va importni qisqartirish jarayonlari, ularning samaradorligini oshirish usullaridan oqilona foydalangan holda investitsiya loyihalarini milliy iqtisodiyot manfaatlari asosida amalga oshirish, ushbu masalaning nazariy-amaliy asoslari o'rganildi.

Ilmiy maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek neft-gaz sanoati tizimida mavjud muammolar va ularning yechimlari, bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar borasida xulosa va takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida strategik tarmoqlar, ayniqsa, neft-gaz sanoatida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida mahalliy kontent ulushini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mahalliy kontent tushunchasi, odatda, investitsiya loyihalarida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xizmatlar va ishchi kuchidan foydalanish darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida "mahalliy kontent" tushunchasi amaldagi qonunchilikda qo'llanilmaydi va bunga mas'ul idora belgilanmagan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-maydagi 390-son qaroriga asosan mahalliy sanoatni jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va import o'rnini bosish funksiya va vazifalari Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, tender va davlat xaridlarida mahalliy kontent ulushini oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan (1-rasm).



Davlat xaridlari tizimi O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek mazkur qonunni ijrosini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi. Masalan, mazkur qonun hujjatlariga ko'ra "O'zbekneftgaz" AJ ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxs sifatida davlat (korporativ) xaridlar subyekti hisoblanadi.

Ўзбекистон Республикасининг Қонунлари	Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарорлари	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари
• 22.04.2021 йилдаги <u>"Давлат харидлари тўғрисида"ги Қонун</u>;	25.07.2022 йилдаги "Инвестициявий ва инфратузилмавий лойиҳаларнинг лойиҳаолди, давлат харидига доир тендер бўйича харид қилиш ҳужжатлари ва техник топшириқлар ҳамда шартномаларни экспертизадан ўтказиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-332-сонли; 27.09.2018 йилдаги "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат харидлари тўғрисида"ги қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3953-сонли; 24.08.2019 йилдаги "Давлат ва ҳўжалик бошқаруви ҳамда маҳаллий ижроия ҳокимияти органларининг ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш ва саноат тармоқларида кооперация алоқаларини жадаллаштиришнинг янги тизимини жорий этиш бўйича масъулиятини янада ошириш тўғрисида" ПҚ-4426-сонли; 21.08.2020 йилдаги "Маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4812-сонли ва бошқалар.	20.05.2022 йилдаги "Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисида"ги 276-сонли; 30.09.2019 йилдаги "Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳузуридаги рақамли трансформация марказининг электрон кооперация порталида ахборотни жойлаштириш ва харидларини амалга ошириш тартибини тасдиқлаш тўғрисида"ги 833-сонли; 17.12.2019 йилдаги "Саноат кооперацияси асосида тайёр маҳсулотлар, бутловчи буюмлар ва материаллар ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш дастурини шакллантириш, амалга ошириш ва ҳисобот тизимини юритиш ҳамда ушбу жараёнда давлат бошқаруви органлари ва лойиҳалар ташаббускорларининг ўзаро ҳамкорлик қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги 1009-сонли; 11.03.2025 йилдаги "Корпоратив буюртмачиларнинг тадбиркорлик субъектлари билан кооперация алоқаларини ўрнатиш ва давлат харидлари жараёнида ишлаб чиқарувчиларни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 159-сонли қарорлари ва бошқалар.

1-rasm. O'zbekiston Respublikasida mahalliyashtirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan "O'zbekneftgaz" AJ tizimida mahalliy kontekst bilan munosabatlar va xaridlar jarayoni tizimi yuqoridagi qonun hamda qonunosti hujjatlari asosida amalga oshiriladi (1-rasm).

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17 dekabrda 1009-son qaroriga ko'ra mahalliyashtirish darajasi quyidagi tarzda hisoblanishi belgilangan:

$$MD = (1 - IM/MT) \cdot 100\%, \text{ bunda } 0 < IM < MT;$$

MD - mahalliyashtirish darajasi;

IM - import bo'ladigan xom ashyo, material va butlovchi qismlarning xorijiy valyutadagi qiymati (bojxona to'lovlarini hisobga olgan holda) so'mda ifodalangan. Bunda importga olib kelingan xom ashyolar mahalliy yetkazib beruvchilardan sotib olinganda mahalliy xom ashyo sifatida ko'rsatilmaligi belgilangan.

Shuningdek, mazkur qarorga ko'ra mahalliyashtirish loyihasi uchun quyidagi mezonlar (o'lchovlar) belgilangan:

mahalliyashtiriladigan mahsulotlarning respublika hududiga doimiy ravishda, katta miqdorda import qilinishi;

mahalliyashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish quvvati va mavjud xom ashyo bazasi negizida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish imkoniyatining mavjudligi;

tarmoq va hududiy korxonalarda mavjud texnologik uskunalarning tez ishdan chiquvchi butlovchi buyumlari, ehtiyot qismlari va materiallarini ishlab chiqarishga qaratilganligi;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotning mahalliyashtirish darajasi kamida 36 foiz bo'lishi;

mahalliyashtirilayotgan mahsulotga ichki va tashqi bozorda yetarli darajada talabning mavjudligi;

ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjudligi, ayniqsa, bo'sh bino va kichik sanoat zonalaridagi mavjud infratuzilmadan foydalanilishi;

yirik va kichik korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari yo'lga qo'yilganligi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17- dekabrda 1009-son qaroriga asosan import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq jarayon mahalliyashtirish jarayonlari sifatida belgilangan. Bunda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar loyiha tashabbuskori sifatida belgilangan.



Shuningdek mazkur qaror bilan mahalliyashtirish jarayonining quyidagi bosqichlari belgilab berilgan: a) import mahsulotni (yoki mahsulotlar ro'yxatini) shakllantirish; b) loyiha tashabbuskorini aniqlash; v) mas'ul davlat organi bilan kelishish; g) Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlash.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonuniing 16-moddasiga ko'ra "davlat xaridlarida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda kamida uchta mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etsa ushbu mahalliy ishlab chiqaruvchilarga takliflarni baholashda foydalaniladigan imtiyozlar va preferensiyalar berilishi mumkin"ligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi PQ-4812-son qaroriga muvofiq korporativ buyurtmachi mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoni bo'lmagan taqdirda korporativ xaridlarni import orqali amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini kuzatuv kengashlariga asoslab berishi belgilangan. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ("mahalliy kontent"ni) qo'llab-quvvatlash maqsadida mazkur Qaror bilan xorijda ishlab chiqarilgan alohida tovarlar, ish va xizmatlarning davlat xaridlaridagi ishtirokini vaqtinchalik taqiqlash mexanizmi joriy etilib, mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan import tovarlarning CIP (O'zbekiston) narxidan 15 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda preferensiya qo'llanilish tartibi o'rnatilgan.

Respublikada sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-son qarori bilan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va kooperatsiya aloqalarini jadallashtirish Vazirlar Mahkamasi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari faoliyatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-son qarori bilan viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalariga hokimning ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha yordamchisi lavozimi joriy etilgan.

So'nggi yillarda neft-gaz sanoatida qator yirik loyihalar amalga oshirildi. Ushbu loyihalarda mahalliy qurilish-montaj ishlari, metall konstruksiyalar, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari keng jalb etilmoqda. Xususan, O'zbekiston JTL, Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi MTO loyihasi, Surxondaryo viloyatidagi "Mustaqillikning 25-yilligi" gazni qayta ishlash zavodi kabi yirik obyektlarda mahalliy pudratchi va subpudratchi tashkilotlar ishtirokini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlillarga ko'ra ayrim loyihalarda mahalliy kontent ulushi 40-50 foizgacha yetganini aytish mumkin, bunda asosiy yo'nalish qurilish-montaj ishlari va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri kelmoqda. Biroq yuqori texnologiyali uskunalar va texnologiyalar hali ham asosan import hisobiga amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga mahalliy kontent bilan ishlashda bir qator institusional masalalar ham saqlanib qolmoqda (2-rasm).


XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagi yo'nalishlardagi tizimli takliflarni amalga oshirish lozimligini aytish mumkin:

1. Qonunchilik va me'yoriy bazani takomillashtirish

"Mahalliy kontent" tushunchasini aniq belgilab beruvchi me'yoriy- huquqiy hujjatlar bazasi va investorlar uchun tegishli majburiyatlar chegerasini belgilab berish. Masalan:

- neft-gaz korxonalarida amalga oshirilayotgan davlat yoki korporativ xaridlarda kamida 30-40 foiz mahalliy mahsulot va xizmatdan foydalanish majburiyati;



2-rasm. Mahalliy kontent ulushini oshirishda mavjud muammoli holatlar.



- investisiya shartnomalari va bitimlarida (mahsulot taqsimotiga oid bitimlarda) mahalliy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish bo'yicha alohida band kiritish;

- burg'ulash, transport, ta'mirlash, logistika, injiniring-konsalting kabi xizmatlarni mahalliy kompaniyalardan xarid qilish uchun talab va tartiblar joriy etish;

- xorijiy investorlarga mahalliy sub qurilish va servis kompaniyalar bilan ochiq (shaffof) tender va tanlovlar asosida ishlash bo'yicha shartlar qo'yish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ball berish, "mahalliylik koeffitsiyenti"ni joriy etish, alohida "mahalliy kontent" sertifikatlash tizimini yaratish, bunda ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotda mahalliy xomashyo ulushining bosqichma-bosqich oshirib borilishi, sifat, xalqaro sertifikatlarning mavjudligi va texnologik taraqqiyot uchun raqamli platformalarda rag'batlantirib borish tartiblarini joriy etish va boshqalar;

- davlat xaridlarida "mahalliy kontent" ulushi yuqori bo'lgan investisiya loyihalari egalariga mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan o'sib boruvchi shkalada preferensiya qo'llash imkoniyatini taqdim etish.

2. Sanoat mahsulotlarining mahalliy ishlab chiqaruvchilari institutini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish

Neft-gaz sanoatining texnologik, geologik va mexanik o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda soha uchun zarur bo'lgan mahsulotlar, butlovchi buyum va materiallarning (quvurlar, fontan armaturalari, zadvijskalar, filtrlar, kimyoviy reagentlar va hokazo) muayyan qismlarini (lisenziar talabi bilan majburiy sotib olinadiganlardan tashqari) O'zbekistonda ishlab chiqarishni manzilli qo'llab-quvvatlash.

Bunda, alohida ishlab chiqiladigan davlat dasturida, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga soliq va bojxona imtiyozlari berish, texnologik modernizatsiya uchun kreditlar, aniq yo'naltirilgan moliyaviy instrumentlar va fintex modellarini qo'llash imkoniyatlarini taqdim etish, xorijiy investorlar bilan sanoat kooperatsiyasi asosida qo'shma korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish.

3. "Mahalliy kontent" bilan ishlash jarayonlarini raqamlashtirish va tizimlashtirish, jumladan:

- har bir yirik investisiya loyihasi bo'yicha "mahalliy kontent ulushi"ni avtomatik hisoblaydigan va ochiq e'lon qiladigan elektron platformani yaratish;

- mahalliy kontent ko'rsatkichlari bo'yicha vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalarining milliy reyting tizimini joriy etish;

- "mahalliy kontent" talablarini (ko'rsatkichlarini) bajarmagan investorlarga (vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalariga) jarima yoki kvota cheklavlarini qo'llash, aksincha ijobiy ko'rsatkichga erishgan subyektlarni rag'batlantirish.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish

Mahalliy mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish, qo'llab-quvvatlash. Oliy ta'lim muassasalarida "neftgaz injiniringi", "sanoat logistikasi", "texnik servis", "neft gaz sanoati va qurilishida sun'iy intellekt mutaxassisi", "mahalliy lashtirish", "mahalliy kontent" va boshqa yo'nalishlari bo'yicha amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy etish.

Yirik xorijiy neftgaz kompaniyalari bilan hamkorlikda stajirovkalar, "dual ta'lim" dasturlarini tashkil etish.

5. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyani rag'batlantirish

Neft-gaz texnologiyalari bo'yicha mahalliy R&D (research and development) markazlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga patent, nou-xau va texnologik lisensiyalarni olishda davlat tomonidan ko'maklar berish.

Ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilgan kompaniyalarga, mahalliy mahsulotlar va xizmatlar uchun kredit stavkalaridan yengilliklar, subsidiya va "soliq ta'tillari" berish.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tordo, S., Warner, M., Manzano, O. E., & Anouti, Y. (2013). Local content policies in the oil and gas sector. Washington, DC: World Bank.
2. Kalyuzhnova, Y. (2017). Local content policies in the oil and gas sector: Global trends. The Extractive Industries and Society, 4(3), 494–503. <https://doi.org/10.1016/j.exis.2017.05.002>.
3. Ovadia, J. S. (2016). Local content policies and petro-development in Sub-Saharan Africa: A comparative analysis. Resources Policy, 49, 20–30. <https://doi.org/10.1016/j.resourpol.2016.04.003>.
4. Vasconcelos, F. C., & Vasconcelos, F. A. (2019). Local content in the Brazilian oil industry: Development tool or political instrument? Journal of World Energy Law & Business, 12(3), 189–209. <https://doi.org/10.1093/jwelb/jwz010>.
5. Yessengeldin, B., Mussirov, K., & Urazova, G. (2020). The role of local content policy in oil and gas sector development: Evidence from Kazakhstan. Journal of Asian Finance, Economics and Business, 7(3), 223–231. <https://doi.org/10.13106/jafeb.2020.vol7.no3.223>.
6. Esteves, A. M., & Barclay, M. A. (2011). Enhancing the benefits of local content: Integrating social and economic impact assessment into procurement strategies. Impact Assessment and Project Appraisal, 29(3), 205–215. <https://doi.org/10.3152/146155111X12959673796128>.
7. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>